

**BUYRAK KASALLIKLARINI DAVOLASHDA ISHLATILADIGAN ANTIBIOTIKLAR VA
ULARNING TARKIBI**

**АНТИБИОТИКИ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ ПРИ ЛЕЧЕНИИ ЗАБОЛЕВАНИЙ ПОЧЕК, И ИХ
СОСТАВ**

**ANTIBIOTICS USED IN THE TREATMENT OF KIDNEY DISEASES AND THEIR
COMPOSITION**

Ismatullayeva Kamola Qudratillo qizi

*Andijon viloyati Paxtaobod tumani Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi
tehnikumi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *quyida buyrak kasalliklari va ularning turlari, tarqalishi hamda kasalliklarni davolashda ishlatiladigan sintetik dori vositalarining turlari, asosan antibakterial sintetik dori vositalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Аннотация: *ниже представлены сведения о заболеваниях почек и их видах, распространенности, а также видах синтетических препаратов, применяемых при лечении заболеваний, преимущественно антибактериальных синтетических препаратов.*

Abstract: *Below is information about kidney diseases and their types, prevalence, and types of synthetic drugs used to treat the diseases, mainly antibacterial synthetic drugs.*

Kalit so'zlar: *buyrak kasalliklari, antibakterial, spazmalitik, diuretik, nefropatiya, nefroskleroz, pioneфроз.*

Ключевые слова: *заболевания почек, антибактериальное, спазмолитическое, диуретическое средство, нефропатия, нефросклероз, пионефроз.*

Keywords: *kidney diseases, antibacterial, antispasmodic, diuretic, nephropathy, nephrosclerosis, pyonephrosis.*

Bugungi kunda dunyoning yetakchi olimlari tomonidan buyrak kasalliklarini davolash uchun 10 dan ortiq sintetik dori vositalari amaliyotga tatbiq etilgan. Lekin sintetik kimyoviy dori vositalari inson organizmida parchalanishi natijasida hosil bo'ladigan quyi molekulali mahsulotlarning ko'pchiligi, jigar, buyrak, taloq singari organlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oqibatda ko'pchilik bemorlarda kimyoviy terapevtik usullar bilan davolashdan so'ng qo'shimcha kasalliklar kelib chiqishi kuzatilmoqda.

Buyrak kasalliklari – organizmda siydik hosil bo'lishi buzilishi natijasida kelib chiqadigan turli patologiyalarni o'z ichiga oladi, ko'plab buyrak kasalliklari asimptomatik kechadigan kasallik hisoblanadi[1]. Pielonefrit, gidronefroz, glomerulonefrit, **neфropatiya, nefroskleroz, pioneфроз, tubulopatiyalar**, siydik-tosh kasalliklari, buyraklarning yomon sifatli o'smalari kabi buyrak kasalliklari aholi orasida kundan-kunga ortib bormoqda[2]. Buyrak kasalliklarining

dastlabki bosqichini aniqlash usuli siydikdagi albumin miqdorini aniqlash bo'lib, mikroalbuminuriyani o'z vaqtida aniqlashga imkon beradi[3]. Buyrak kasalliklarini davolashda asosan qon bosimi etiborga olinadi[4].

Dunyoning bir qancha davlatlarida har xil kimyoviy moddalarning fizik – kimyoviy hamda antioksidantlik xossalarini bilib olish va turli sintetik moddalar

ishlab chiqish bo'yicha bir qancha usullar ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimizda xorijiy antiblastiklarning orasida ma'lum bir qismini sintetik preparatlar tashkil etadi. BK larini davolashda tarkibi tabiiy va sintetik bo'lgan dori vositalaridan foydalaniladi, kasalliklarini davolashda, kasallikning klinik holatiga va turiga hamda dori vositalarining farmakodinamikasiga qarab dori vositalari tanlanadi[5]. Tibbiyotda BK larini davolashda turli farmakologik guruhdagi sintetik dori vositalari ishlatiladi. Masalan:

1. Diuretiklar;
2. Antibakterial;
3. Antispazmotiklar;



1-rasm. Turli hildagi sintetik vositalar

Antibakterial – guruhdagi dori vositalari bakteriya va mikroblar orqali paydo bo'ladigan turli hildagi kasalliklarni davolashda qo'llaniladi, ushbu dori vositalari bir vaqitning o'zida bir qancha patogenlarga ta'sir qilish xususiyatiga ega bo'lgan, keng miqiyosda qo'llaniladigan dorilar safiga kiradi [6]. Antibakteriallar antibiotiklar deb ham yuritiladi. Tarkibi bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi:






- Antibakterial sintetik vositalar
- Bakteritsid antibiotiklar


Antibakterial sintetik vositalar - turli xildagi kasalliklarni davolash uchun ishlatiladi masalan: nafas yo'llari infeksiyalri, suyak va tayanch harakatlanish kasalliklarida, shilliq qavatlar hamda buyrak va siydik yo'llari kasalliklarini davolashda ishlatiladi [7]. Quyidagi 1-jadvalda ayrim antibakterial dori vositalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

1-jadval.

Antibakterial dori vositalari, faol moddasi, ta'sir mehanizmi va qo'llanilishi.

Dori nomi	Asosiy ta'sir mehanizmi	Qo'llanilishi	Faol moddasi struktura formulasi
-----------	-------------------------	---------------	----------------------------------

<p>Furatsilin (Nitrofur al)</p>	<p>Garamm anfiy hamda grammusbat bakterialarga qarshi antibakterial vosita</p>	<p>Siydik yo'llari kasalliklari va turli infeksiyalarda sirtidan ishlatish yoki ichish uchun</p>	
<p>furadoni (Nitrofur antoin)</p>	<p>Garamm anfiy hamda grammusbat bakterialarga qarshi antibakterial vosita</p>	<p>Siydik yo'llari kasalliklari infeksiyalarida va urologik kasalliklarda.</p>	
<p>Furagin (Furazidi n)</p>	<p>Garamm anfiy hamda grammusbat bakterialarga qarshi antibakterial vosita</p>	<p>Siydik yo'llari kasalliklari infeksiyalarida, yiringli yaralarni davolshda.</p>	
<p>Nitroks olin (8- oksixinolin)</p>	<p>Garamm anfiy hamda grammusbat bakterialarga qarshi antibakterial vosita</p>	<p>Buyrak va siydik chiqarish yo'llari, nafas yo'llari turli darajadagi yallig'lanishlarda</p>	
<p>Norfloksatsin (Norfloksatsin)</p>	<p>Mikroblarga qarshi bakteritsik xususiyatga ega</p>	<p>Siydik yo'llari kasalliklari, prostata bezi, oshqozon ichak kasalliklari yallig'lanish va yuqimli kasalliklarda</p>	

Siprofloksatsin (Siprofl oksatsin)	Garamma nfiy hamda grammusbat bakterialar va mikroblarga qarshi vosita	O'tkir va surunkali bronxit, o'tkir sinusit, sistit va pielonefrit kabi turli infeksiyali kasalliklarda	
------------------------------------	--	---	---

Xulosa: xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki buyrak kasalliklari keng tarqalgan kasalliklar turiga kiradi, ularni davolashda turli hildagi sintetik dori vositalaridan foydalaniladi ular qatorida antibakterial dori turlari ham mavjud lekin ulardan foydalanishda ehtiyotkor bo'lish tavsiya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://mymedic.uz/kasalliklar/urologiya/buyrak-kasalliklari>.
2. Arslonov Y.L., Nazarov T.A., Bobomurodov A.A. "Ichki kasallilar" Ilm ziyo. T-2018y. 390b.
3. Looker H.C. Adiponectin concentrations are influenced by renal function and diabetes duration in Pima Indians with type 2 diabetes. J Clin Endocrinol Metab 2004; (89):4010-4017. doi: 10.1210/jc.2003-03191
4. Asqarov I.R., "Sirli tabobat" Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi T-2021 1084 bet.
5. S.S. Azizova "Farmakologiya". T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2006-yil.
6. Л.П.Кравченко. "Дори препаратларнинг полярографияси" –Олий мактаб, 1996-й, 100-300-б.
7. Е.Б. Букреева, Т.Г. Мельник Антибактериальная терапия в практике врача. учебное пособие. –Томск: СибГМУ, 2012 – 67 с.